EVAKUATSIYA TASHKILOTLARI TARIXINI O‘ZMA R-94-FOND HISOBOTLARI ASOSIDA YORITILISHI. (1941-1945-yillar)

Dildora Jo’rakulovna Yusupova*
O’zbekiston Milliy universiteti
✉ dildorayusupova689@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRga evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish, ularning ta’lim-tarbiyasini tashkil etish va moddiy ta’minlash masalalari O‘zbekiston Milliy arxivining P-94-jamg‘armasida saqlanayotgan hujjatlar asosida tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi hamda bolalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha respublika va viloyat komissiyalarining faoliyati, evakuatsiya qilingan bolalarni mehribonlik uylari, kolxoz va sovxozlar hamda kasb-hunar ta’limi muassasalariga joylashtirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, mehribonlik uylariga homiy tashkilotlarni biriktirish, bolalarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlash, ularning ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar arxiv hisobotlari asosida ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Hujjatlardagi statistik ma’lumotlar va tarixiy dalillar orqali urush davrida bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining tashkiliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Ikkinchi jahon urushi, evakuatsiya, O‘zbekiston SSR, O‘zbekiston Milliy arxivi, R-94-jamg‘arma, evakuatsiya qilingan bolalar, Xalq maorifi komissarligi, mehribonlik uylari, bolalarni joylashtirish, homiylik tashkilotlari, moddiy ta’minot, ijtimoiy himoya.

DOI: 10.5281/zenodo.24467053

KIRISH. Arxiv hujjatlari ma’lumotlarini o‘rganish davlatlar va jamiyatlar taraqqiyoti tarixining kam o‘rganilgan jihatlariga oydinlik kiritish imkonini beradi, bu esa ularning jahon hamjamiyatidagi bugungi va kelajakdagi o‘rni va mavqeini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Arxiv hujjatlarining ko‘psonliligi va ularning doimiy ravishda to‘planib borishi ularning arxivda tartibga solinishini taqozo etadi, bu esa, o‘z navbatida, tizimlilikni ta’minlaydi Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRga evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish, joylashtirish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash va ta’lim-tarbiyasini tashkil etish jarayoni davlat boshqaruvi organlari tomonidan muntazam nazorat qilib borilgan. Mazkur jarayonda O‘zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi, bolalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha respublika va viloyat komissiyalari, mahalliy ijroiya organlari hamda turli tashkilotlarning faoliyati muhim o‘rin egallagan. Ushbu tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar evakuatsiya qilingan bolalarning soni, ularni joylashtirish holati, mehnat va ta’lim muassasalariga taqsimlanishi, moddiy ta’minoti hamda mavjud muammolar to‘g‘risida muhim tarixiy ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi. O‘zbekiston Milliy arxivir R-94-jamg‘armasi, 5-ro‘yxatida saqlanayotgan 4250 va 4253-yig‘majild hujjatlari mazkur masalalarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda nafaqat hukumat qarorlari va ularning ijrosiga doir ma’lumotlar, balki joylarda amalga oshirilgan amaliy ishlar, mas’ul shaxslarning hisobotlari, mehribonlik uylarining moddiy ehtiyojlari va bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar ham aks etgan. Ayniqsa, hisobotlarda belgilangan vazifalarning amalda qay darajada bajarilganligi, hududiy tashkilotlarning mas’uliyati va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilishi ularning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Jamg‘armaning 4250-yig‘majildida saqlanayotgan O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti va O‘zbekiston KP(b) Markaziy Qo‘mitasining evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish va tarbiyalashga oid qarorlar ijrosini tekshirishga bag‘ishlangan hujjati alohida e’tiborga loyiq. Unda 1941-yil noyabr oyidagi hamda 1942-yil yanvar oyidagi hukumat qarorlarining bajarilishi, shuningdek, SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 23-yanvardagi 75-sonli qarorini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. [1]Mazkur hujjat mazmunidan ko‘rinadiki, hukumat evakuatsiya qilingan bolalarni respublika hududlariga joylashtirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning yashashi, ta’lim olishi, tarbiyalanishi va moddiy ta’minoti

[1]O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4250-yig’majild, 50-varaq.

uchun zarur sharoitlarni yaratishni ham muhim vazifa sifatida belgilagan. Hujjatlarda Toshkent shahrida markaziy bolalar evakuatsiya punktining tashkil etilishi va uning faoliyati natijalari to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, 1941-yil noyabridan 1942-yil fevraligacha bo‘lgan davrda jami 11 650 nafar evakuatsiya qilingan bola qabul qilingan. Ularning 1 554 nafari mehribonlik uylari va bolalar uylariga, 6044 nafari kolxoz va sovxozlardagi ishlab chiqarish faoliyatiga, 4052 nafari esa kasb-hunar hamda temiryo‘l maktablariga joylashtirilgan. Keltirilgan raqamlar evakuatsiya qilingan bolalarni turli muassasalarga taqsimlashda ularning yoshi, imkoniyatlari va mavjud tashkiliy ehtiyojlar hisobga olinganini ko‘rsatadi.[2]Ushbu statistik ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish jarayonida uchta asosiy yo‘nalish mavjud bo‘lgan: birinchisi, ota-ona qaramog‘idan ayrilgan yoki alohida parvarishga muhtoj bolalarni mehribonlik uylariga joylashtirish; ikkinchisi, mehnat faoliyatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lganlarni kolxoz va sovxozlarga taqsimlash; uchinchisi, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashi mumkin bo‘lgan yoshlarni maxsus ta’lim muassasalariga yo‘naltirish. Demak, davlat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar bolalarning kundalik ehtiyojlarini ta’minlash bilan bir qatorda, ularning kelgusidagi ijtimoiy hayotga moslashuvi va kasbiy tayyorgarligini ham nazarda tutgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu bilan birga, mazkur hujjatlarda NKVD tizimida bolalarni joylashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilgani haqida ham ma’lumot berilgan. Xususan, 475 o‘ringa mo‘ljallangan oltita qo‘shimcha bolalar uyi tashkil etilgan. Shuningdek, 580 nafar evakuatsiya qilingan bola NKVD tasarrufidagi bolalar uylari orqali qabul qilingan. Bu ma’lumotlar bolalarni joylashtirish masalasi faqat Xalq maorifi komissarligi zimmasida bo‘lmaganini, balki boshqa davlat idoralari ham ushbu jarayonga jalb etilganini ko‘rsatadi.[3] Shu tariqa, bolalarni qabul qilish va joylashtirish bo‘yicha muassasalar tarmog‘ini kengaytirish orqali mavjud imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilingan. Jamg‘armaning 4253-yig‘majildida saqlanayotgan hisobotlardan biri O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissari o‘rinbosari Rachinskayaning Zeltserga yuborgan hisoboti bo‘lib, unda.1942-yil 13-yanvarda DEP ko‘rsatmasi asosida evakuatsiya qilinganlarning ikkinchi guruhi hududga olib kelingani haqida ma’lumot berilgan. Hisobotda Yangiyo‘l tumanida 70 nafar fuqaro ishga joylashtirilgani, ularning ikki kun davomida turli mehnat korxonalari o‘rtasida taqsimlangani va ish bilan ta’minlangani qayd etilgan.[4] Mazkur ma’lumot evakuatsiya jarayonida kelgan aholini qabul qilish va ularni mavjud xo‘jalik hamda ishlab chiqarish imkoniyatlariga muvofiq joylashtirish ishlari olib borilganini ko‘rsatadi. Hisobotda kolxozlarning bolalarni qabul qilishga tayyorgarligi masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Engelsveren, Oxunboboyev va “Qizil oktabr” kolxozlarida yotoqxonalar tayyorlanganligi, ularga zarur jihozlar o‘rnatilganligi, deraza va eshiklar ta’mirlanganligi, choyshab hamda oziq-ovqat zaxiralari mavjudligi qayd etilgan. Bundan tashqari, bolalar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun o‘qituvchilar ajratilgan. Ushbu holat kolxozlar zimmasiga faqat bolalarni vaqtincha joylashtirish vazifasi yuklatilmaganini, balki ularning yashash sharoitini yaxshilash va tarbiyaviy jarayonni tashkil etish ham ko‘zda tutilganini anglatadi.Rachinskaya hisobotining tarixiy ahamiyati shundaki, unda hukumat qarorlarining joylardagi ijrosi aniq misollar orqali yoritilgan.[5] Xususan, yotoqxonalarning jihozlanishi, oziq-ovqat va choyshab bilan ta’minlanishi, o‘qituvchilarning biriktirilishi evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilishga tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan. Bunday ma’lumotlar rasmiy qarorlarda belgilangan vazifalarning hududlarda qanday amalga oshirilganini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, 70 nafar fuqaroning ishga joylashtirilishi haqidagi ma’lumot bolalarni joylashtirish bilan bir qatorda, evakuatsiya qilingan aholining mehnat faoliyatini tashkil etish masalasi ham nazorat qilinganini ko‘rsatadi. 4253-yig‘majildning 23-varag‘ida bolalarga yordam berish bo‘yicha viloyat komissiyasi raisining mehribonlik uylari direktorlariga yuborgan ko‘rsatmasi ham mavjud. Ushbu hujjatda mehribonlik uylariga homiylik qiluvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash va homiylik ishlarini tizimli tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, mehribonlik uylariga homiylik qiluvchi tashkilotlar faoliyati to‘g‘risidagi “Nizom”ni tegishli muassasalarga yuborish, hududlarda faoliyat yuritayotgan barcha homiy tashkilotlarni ushbu nizom bilan tanishtirish

[2]O’sha joyda 50-varaq.
[3]O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4253-yig’majild, 67-varaq.
[4]O’sha joyda 70-73-varaqlar
[5]O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4253-yig’majild, 12-varaq.

hamda uning talablarini bajarish zarurligi ta’kidlangan.[6] Evakuatsiya qilingan bolalarning ta’lim olishi ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Arxiv hujjatlarida O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi tomonidan Pionerlar saroyi direktoriga yuborilgan murojaat qayd etilgan. Unda karantindagi bolalar uyiga doimiy foydalanish uchun 500 nusxa badiiy adabiyot ajratish taklif qilingan Mazkur murojaat bolalarning faqat moddiy ehtiyojlarini qondirish emas, balki ularning ma’naviy rivojlanishi, kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini davom ettirish masalalariga ham e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. 4253-yig‘majildda bolalarni joylashtirish uchun hududlarda tayyorlangan muassasalar va joylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham uchraydi.

Tahlil va natijalar.Jumladan, hujjatda Buxoro viloyati bo‘yicha Buxoro shahrida 100, Romitan tumanida 100, Vobkent tumanida 100, Shahrisabzda 75, G‘uzorda 100, Qamashida 100 va G‘ijduvonda 100 o‘rin ajratilgani qayd etilgan. Keltirilgan ko‘rsatkichlar asosida jami 675 o‘rin rejalashtirilganini aniqlash mumkin. Bu raqamlar bolalarni faqat yirik shahar markazlarida emas, balki tumanlar kesimida ham joylashtirishga e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. 4253-yig‘majilddagi yana bir muhim ma’lumot Namangan viloyatining Chust tumanida tashkil etilgan bolalar shaharchasi faoliyati bilan bog‘liq.[7] O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 17-iyuldagi qarorini amalga oshirish maqsadida Maorif xalq komissarligi tomonidan ushbu hududda 400 nafar zaiflashgan, asosan evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga mo‘ljallangan bolalar shaharchasi tashkil etilgan. Hujjatda bolalarning ovqatlanishini nazorat qilish va har bir bola uchun kunlik oziq-ovqat me’yorlarini belgilash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, bir nafar bola uchun kunlik oziq-ovqat me’yori quyidagicha belgilangan: non – 500 gramm, un – 30 gramm, yorma – 30 gramm, guruch – 30 gramm, makaron – 45 gramm, yog‘ – 48 gramm, shakar – 30 gramm, qandolat mahsulotlari – 33 gramm, go‘sht – 84 gramm, kartoshka – 400 gramm, boshqa sabzavotlar – 375 gramm, yangi mevalar – 225 gramm, sut – 300 gramm, smetana – 15 gramm, tuxum – yarim dona, choy – 0,4 gramm va qahva – 3 gramm. Ushbu me’yorlarning tahlili bolalarning oziq-ovqat ta’minoti muayyan tartib va miqdor asosida tashkil etilganini ko‘rsatadi. Xususan, non, kartoshka, sabzavot, sut, go‘sht va boshqa mahsulotlarning kunlik miqdori alohida belgilanishi ovqatlanish jarayonini nazorat qilishga xizmat qilgan. Ayniqsa, jismonan zaiflashgan bolalar uchun maxsus bolalar shaharchasining tashkil etilishi va ularning oziq-ovqat ta’minotiga alohida e’tibor qaratilishi davlat organlari tomonidan bolalarning salomatligi va yashash sharoitlarini yaxshilash masalasi ham ko‘zda tutilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, hujjatda bolalar shaharchasining kontingenti bilan bog‘liq o‘zgarishlar ham qayd etilgan.[8] Dastlab 400 nafar bolani qamrab olish rejalashtirilgan bo‘lsa-da, keyingi ma’lumotlarda 1943-yilga kelib bolalar soni 150 nafarni tashkil etgani ko‘rsatilgan. Shuningdek, muassasaning 1943-yil 1-aprelgacha faoliyat yuritishi va yozgi davr uchun 1-oktabrgacha qolishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. Bu holat bolalar shaharchasining faoliyati va undagi tarbiyalanuvchilar soni vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Biroq kontingentning kamayish sabablari hujjatda aniq ochib berilmaganligi sababli, bu jarayonni boshqa muassasalarga ko‘chirish, oilalarga joylashtirish yoki boshqa omillar bilan bog‘lash uchun qo‘shimcha manbalarni o‘rganish zarur. 4253-yig‘majilddagi hujjatlarning yana bir jihati shundaki, ularda o‘zbek xalqining evakuatsiya qilingan bolalarga ko‘rsatgan yordami va mehribonligi haqida fikrlar ham aks etgan. Hujjatda urush hududlaridan O‘zbekistonga olib kelingan, ota-onasidan ayrilgan bolalar butun jamiyatning farzandlari sifatida e’tirof etilgan. Ularga kiyim-kechak va poyabzal berish, yashash, o‘qish hamda mehnat qilishi uchun qulay sharoit yaratish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifalardan biri sifatida talqin qilingan. Shuningdek, respublika hududlariga joylashtirilgan 7 ming nafar bolani qamrab olgan 27 ta bolalar uyining faoliyati, ularni zarur mablag‘ va yashash sharoitlari bilan ta’minlash masalalari qayd etilgan. Mazkur ma’lumotlar urush yillarida evakuatsiya qilingan bolalarga yordam ko‘rsatish jarayoni faqat ma’muriy topshiriqlar va moddiy ta’minot bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi. Mahalliy aholining bolalarni o‘z farzandlaridek qabul qilishi, ularning yashash va ta’lim olishi uchun sharoit yaratishga intilishi ijtimoiy birdamlikning muhim ko‘rinishi bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan, arxiv hujjatlarida aks etgan murojaat va bayonotlar nafaqat davlat siyosatining yo‘nalishlarini, balki urush davridagi ijtimoiy munosabatlar va insonparvarlik tamoyillarini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

[6]O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4253-yig’majild, 12-varaq.
[7]O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4414-yig’majild, 2-varaq
[8]O’sha joyda 2-varaq.

Umuman olganda, O‘zbekiston Milliy arxivir 94-jamg‘armasi, 5-ro‘yxatidagi 4250 va 4253-yig‘majildlarda saqlanayotgan hujjatlar evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish va ijtimoiy himoyalash jarayonining turli yo‘nalishlarini yoritib beradi. Ularda markaziy evakuatsiya punktlari faoliyati, bolalarni mehribonlik uylari va ta’lim muassasalariga taqsimlash, kolxoz va sovxozlarda joylashtirish, homiy tashkilotlarni biriktirish, oziq-ovqat me’yorlarini belgilash hamda bolalarning ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarini ta’minlash kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, urush yillarida evakuatsiya qilingan bolalarni ijtimoiy himoyalash ko‘p yo‘nalishli va murakkab tashkiliy jarayon bo‘lgan. Bu jarayonda davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, hududiy komissiyalar faoliyati, mahalliy xo‘jaliklarning homiyligi va ta’lim muassasalarining ishtiroki o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilgan. Arxiv hisobotlari esa belgilangan vazifalarning amaliy ijrosi, mavjud imkoniyatlar va ta’minot masalalarini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli mazkur hujjatlar Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda evakuatsiya qilingan bolalarning ijtimoiy ahvoli, ularni joylashtirish tizimi va mahalliy aholining ko‘magini tarixiy jihatdan tadqiq etishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan arxiv manbalari

1. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4250-yig‘majild, 50-varaq.

2. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4250-yig‘majild, 50-varaq.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 23-varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 74-varaq.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 70-varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 12-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 70–73-varaqlar.
8. O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4414-yig’majild, 2-varaq

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4250-yig‘majild, 50-varaq.

[2] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4250-yig‘majild, 50-varaq.

[3] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 23-varaq.

[4] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 74-varaq.

[5] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 70-varaq.

[6] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 12-varaq.

[7] O‘zbekiston Milliy arxivi. 94-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 4253-yig‘majild, 70–73-varaqlar.

[8] O’zbekiston Milliy arxiv 94-jamg’arma, 5-ro’yhat, 4414-yig’majild, 2-varaq